

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

BOYBEKOVA SHAXNOZA ALIYEVNA

MA'NAViy QADRIYATLAR – IJTIMOiy BARQARORLIK OMILI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Boybekova Shahnoza Aliyevna

Ma’naviy qadriyatlar – ijtimoiy barqarorlik omili.....5

Бойбекова Шахноза Алиевна

Духовные ценности – фактор социальной стабильности.....23

Boybekova Shakhnoza Alievna

Spiritual values as a factor of social stability.....45

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

BOYBEKOVA SHAXNOZA ALIYEVNA

MA'NAViy QADRIYATLAR – IJTIMOiy BARQARORLIK OMILI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fal962 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta‘lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Choriyev Sanjarbek Anvarovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Safarova Nigora Olimovna
falsafa fanlari doktori, professor

Turdiyev Bexruz Sobirovich
falsafa fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil “1” mart soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (602 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “17” fevral kuni tarqatildi.

(2025-yil “17” fevral dagi 2 - raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Muzaffarov F.D.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ijtimoiy o'zgarish sur'atlarining muttasil jadallashib borishi bir tomondan, intensiv taraqqiyotni, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, texnologiyalar rivojlanishi, moddiy boylikka qiziqish, tabiatga zarar yetkazish kabi muammolar barqaror rivojlanish vektorlarini aniqlab olishni, ma'naviy qadriyatlar tizimini qayta ko'rib chiqishni taqozo qilmoqda. Har ikkala ijtimoiy vazifa yechimi pirovardida ma'naviy qadriyatlar odamlarning axloqiy tamoyillari va hayotga bo'lgan qarashlarini shakllantirishga, birdamlik va mehr-oqibatni targ'ib qilish orqali tinchlikni saqlash va shaxsiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtayi nazardan ma'naviy qadriyatlardan barqarorlik va ravnaq manbai sifatida foydalanish uchun uning mazmuni va tarkibini aniqlash, milliy madaniyat yuksalishida ma'naviy qadriyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy markazlarda ma'naviy qadriyatlarning rivojlanish vektorlaridagi o'rni, uning mo'ljallarini belgilashdagi roli va uni axloq kontekstida tadqiq etish, postmodern jamiyatning uning ijtimoiy pozitsiyasini kabi masalalarga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Ma'naviy qadriyatlar mazmuni va tarkibini o'rganish zamonaviy ilm-fanning yangi tendensiyasiga aylanayotgani ushbu sohadagi institutsional tizim faoliyatining takomillashtirilishiga, yosh avlod ongida qadriyatlarga hurmat, ijodiy salohiyatni ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga imkon beradi. Shuning uchun, ma'naviy qadriyatlarning ilmiy-innovatsion salohiyatni oshirishdagi, milliy madaniyat yuksalishidagi va ijtimoiy barqarorlik omiliga aylanishiga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda "O'zbekiston-2030" strategiyasi asosida ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, ma'naviy qadriyatlar nufuzini oshirish, yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish, islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirishga oid keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. "Ma'naviy rivojlanish bu – vijdon, ornomus va adolatni muqaddas bilib, el-yurt manfaati uchun astoydil harakat qilish demakdir. Ma'naviyat – jamiyat taraqqiyotini belgilovchi asosiy mezondir. Chunki odamlarning ma'naviyati yuksalgandagina jamiyatda tinchlik, xotirjamlik va taraqqiyot bo'ladi. . Ma'naviy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu asosda yosh avlodni ezgulik, umuminsoniy g'oyalar ruhida voyaga yetkazish, ularda xalqimizning ma'naviy va ma'rifiy ideallariga yot bo'lgan zararli ta'sirlarga qarshi immunitetni kuchaytirish masalasi bugun har qachongidan ham dolzarbdir"¹. Ayniqsa, inson erkinliklari va haq-huquqlarini ta'minlashda, sog'lom axloqiy muhitni qaror toptirishda zamonaviy dunyoqarashga ega, insonparvar avlodni tarbiyalashning ustuvor vazifalarini aniqlash hamda ma'naviy qadriyatlar nufuzi va ravnaqiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillarning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. - Тошкент: "O'zbekiston", 2024. - Б.260-261.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2017 yilning 28 iyuldagi PQ-3160-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risidagi”, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizmini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yilning 28 noyabrdagi PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 31-dekabrda 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qadriyatshunoslik masalalari XX asrda faylasuflarning e’tiborini mudom tortib kelgan mavzular turkumiga kiradi. Harqalay, mavzuga doir ilmiy izlanishlar bisyorligi shundan dalolat beradi. Keyingi 20-30 yilda xorijda yana bir qator ilmiy ishlar e’lon qilindi. Ularda postmodern jamiyat sharoitida ma’naviy qadriyatlar mazmuni tubdan o‘zgargani, ayrimlari esa inqirozga yuz tutgani e’tirof etiladi².

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida ma’naviy qadriyatlar bilan bog‘liq ilmiy masalalar ko‘proq aksiologik muammolar kontekstida talqin qilinmoqda. Xususan, P.N.Abatayeva “qadriyat”, “ma’naviy qadriyat” tushunchalari mazmuniga aniqlik kiritishga urinadi, G.Vijletsov ma’naviy qadriyatlar haqidagi ilmiy mulohazalarning falsafiy bilimlar tizimidagi o‘rnini aniqlashga intiladi, A.R.Davudova, M.M.Dalgatov va U.SH.Magomedxanova ma’naviy qadriyatlarining individual jihatlarini tavsiflashga e’tibor beradi,

² Baker W. America's crisis of values. NJ: Princeton University press. 2005. - 307 p.; Hofstede G., Hofstede G.J. Culture and organizations: Software of the mind. New York, NY: McGraw-Hill. 2010. - 576 p.; Inglehart R., Welzel C. Modernization, cultural change, and democracy: The human development sequence. Cambridge, MA: Cambridge University press. 2005. - 344 p.; Landes D.S. The wealth and poverty of nations: Why some are so rich and some so poor. New York, NY: W.W. Norton & Co. 1999. - 658 p.; Norris P., Inglehart R. Sacred and secular: Religion and politics worldwide. New York, NY: Cambridge University Press. 2004. - 348 p.; Sampson E.E. Reinterpreting individualism and collectivism: Their religious roots and monologic versus dialogic person-other relationship // American Psychologist. 2000. №55. - PP.1425-1432.; Sanchez-Burks J. Protestant relational ideology and (in)attention to relational queues in work settings // Journal of Personality and Social Psychology. 2002. - №83. - PP. 919-929.; Weber M. The Protestant ethic and the spirit of capitalism. New York, NY: Courier Dover Publications. 2003. -320 p.

V.N.Karandashev ma'naviy qadriyatlar mazmunini tadqiq qilish uslublarini umumlashtiradi, V.K.Shoxin ma'naviy qadriyatlarga doir falsafiy qarashlar rivoji mantig'ini ochib berishga harakat qiladi³.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida qadriyatlar, ma'naviy qadriyatlar mazmuniga doir ilmiy izanishlar ancha faollashdi. Bu borada birinchi navbatda professor Q.N.Nazarovning xizmatlarini alohida e'tirof etmoq darkor. Olim qadriyatlar olamini yaxlit tizim sifatida tadqiq qilishga, qadriyatlar tasnifini ishlab chiqishga, shu jumladan ma'naviy qadriyatlarning mazmunini atroflicha ochib berishga muvaffaq bo'ldi⁴. Falsafiy aspektda ushbu muammo A.Erkaev, A.Choriev, N.Safarova, Sher Abdulla, B.Xusanov, O.G'aybullaev, R.Ro'zieva, I.Shermanov, G.Jamalova, D.Jamolov kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Shuningdek, ma'naviy qadriyatlar mazmuni va tarkibiga doir ilmiy mulohazalarni T. Abdullayev, J.S. Ramatov, M.Hasanov, F.B. Umarova va boshqalarning ilmiy ishlarida ham ko'rish mumkin⁵.

Mavzuga oid ilmiy ishlar ma'naviy qadriyatlarni ijtimoiy barqarorlik omiliga aylantirish muammolarini tadqiq etishda muhim rol o'ynadi, albatta. Biroq ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, ma'naviy qadriyatlar nufuzini oshirish, yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish sharoitlarida ma'naviy qadriyatlarning ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini tavsiflash, ma'naviy qadriyatlarga putur yetkazayotgan ijtimoiy jarayonlar va illatlarni bartara etishning falsafiy jihatlarini tadqiq etish zaruriyati vujudga kelmoqda. Ushbu dissertatsiya ishida mazkur zaruratni amalga oshirishga, uni yangi pozitsiyadan tadqiq etishga e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Qarshi davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band

³ Абатаева П.Н. Понятие ценностей в психологических исследованиях. // Проблемы современного педагогического образования, 2019, №63-2. -С.293-296; Выжлецов Г.П. Аксиология в системе философского знания. // Вестник Санкт-Петербургского университета. Международные отношения, 2010, -№4. – С.34-39; Давудова А. Р., Далгатова М. М., Магомедханова У. Ш. Личностные ценности студентов с интернальным и экстернальным локусом контроля // Мир науки, культуры, образования, 2016, -№ 4. – С.147-151; Карандашев В.Н. Методика Шварца для изучения ценностей личности: концепция и методическое руководство.- СПб., 2004; Тимофеева О.В. Ценности и особенности их формирования. // Нижегородское образование, 2013, -№4. – С.98-104; Шохин В. К. Философия ценностей и ранняя аксиологическая мысль. - М.: Изд-во РУДН, 2006.

⁴ Назаров К. Аксиология. Қадриятлар фалсафаси. - Т.: Академия, 2011;

⁵ Эркаев А. Маънавиятшунослик. 2-китоб.- Т.: Маънавият, 2018.- Б.76.; Чориев А. Инсон фалсафаси. Ижтимоий тарбия. Учинчи китоб.- Қарши: Илм-фан-маънавият, 2024.- Б.193.; Safarova N. Museums as a factor of lifelong education in the formation of historical consciousness. - Theoretical & Applied Science, 2018; Абдулла Шер., Хусанов Б. Эстетика. Дарслик. – Тошкент, 2001.- 92 б; Гайбуллаев О. Нафосат фалсафаси.- Самарқанд: Самарқанд давлат чет тиллар институти нашр., 2017; Рўзиева Р.Х. Урф-одат ва анъаналар – миллий қадриятларни шакллантирадиган мезон сифатида.// Scientific progress, 2021, №4.- 646 б.; Шерманов И.Ч. Ижтимоий тараққиётда маънавий ишлаб чиқаришнинг фалсафий-методологик аҳамияти.// Илмий хабарнома, АДУ, 2017, №2. – Б.46; Жамалова Г.Г. Барқамол шахс тарбияси.// Academic research in educational sciences, 2023, №10. – Б.176-179; Жамолов Д.Б. Глобаллашув шароитида миллий маданиятни ривожлантириш муаммолари (ижтимоий-фалсафий аспект).- Т.:TUBO-NASHR, 2024. - Б.45.; Абдуллаев Т. Турмуш соҳасида миллий ва умуминсоний қадриятларнинг диалектикаси: Фалс. ф. докт. дисс.-Т.: ЎзР ФА ФХИ, 1992; Раматов Ж.С., Ҳасанов М. Миллий қадриятлар–жамиятимиз барқарорлиги ва ёш авлод тарбиясининг муҳим омили.// Academic research in educational sciences, 2022, №6. – Б.973-979.; Умарова Ф.Б. Қадриятлар миллат маънавиятининг кўзгуси сифатида.// Scientific progress, 2021, №2. – Б.1560-1563.

“Barkamol inson shaxsining shakllanishida ob’yektiv shart-sharoitlar va sub’yektiv omillar dialektikasi” (2020-2025 yy) tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ma’naviy qadriyatlarning ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rnini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“ma’naviy qadriyatlar” tushunchasi mazmuni, shakllari va funksiyalarini tahlil etish;

ma’naviy qadriyatlarning ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyatini tavsiflash;

mustaqillik yillarida ma’naviy qadriyatlarning shakllanishi jarayoni tadqiq etish;

ma’naviy qadriyatlarga putur yetkazayotgan ijtimoiy jarayonlar va illatlarni ochib berish;

ma’naviy qadriyatlarni ijtimoiy barqarorlik omiliga aylantirish mexanizmlarini aniqlashtirish;

ma’naviy qadriyatlarga putur yetkazayotgan ijtimoiy faktorlarni bartaraf etish hamda jamiyat a’zolarining ma’naviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish imkoniyatlarini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida ma’naviy qadriyatlarning shakllanishi jarayoni va ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish sohasidagi islohotlar tanlab olingan.

Tadqiqot predmeti ma’naviy qadriyatlarning ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi imkoniyatlarini, yoshlarda vatanparvarlik va milliy g‘urur hissini tarbiyalash, yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida shakllantirishdagi ahamiyatini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, dialektik, sinergetik, sotsiometrik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jamiyatda ma’naviy qadriyatlar ijtimoiy pozitsiyasining mustahkamlanishi demokratik siyosiy tizimni (inson erkinliklari va haq-huquqlari ustuvorligi, inson kapitalini yuksaltirish) vujudga keltirishda, ma’rifiy jamiyatni (sog‘lom axloqiy muhit, ilmiy-innovatsion salohiyat) shakllantirishda, xavfsiz va tinchliksevar davlat (diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, sinflararo va tabaqalararo hamjihatlik) barpo etish kabi tamoyillarni amaliyotga joriy etishdagi prakseologik ahamiyati ochib berilgan;

ma’naviy qadriyatlar rivojini intensivlashuvida siyosiy islohotlarning insonparvarlashuvi, huquqiy tizimning gumanistik modernizatsiyasi, o‘zbek milliy madaniyati yuksalishi, mamlakatdagi obodonlashtirish, ilmiy izlanishlar xarakterining o‘zgarishi, dinga munosabatning ratsionallasuvi, milliy g‘oya va mafkuraning targ‘ib va tashviq qilinishi omillar zarurati isbotlangan;

ma’naviy qadriyatlar nufuzi va ravnaqiga hayot sur‘atlari, ijtimoiy tengsizlik mavjudligi, korrupsion holatlarning saqlanib qolayotgani, jamiyat a’zolari ma’naviy ehtiyojlari xarakteri o‘zgarayotgani, axborot makonida shov-shuv va feyklarning ko‘payayotgani, aksilqadriyatlar targ‘iboti faollashayotgani, madaniy-

ma'rifiy muassasalar faoliyati besamarligi, ayolning oiladagi mavqei pastligi kabi illatlarning salbiy ta'siri aniqlashtirilgan;

ma'naviy qadriyatlarni ijtimoiy barqarorlik omiliga aylantirishda vaqtdan unumli foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashga optimal tus berish, ma'naviy ehtiyojlarga oqilona tus berish, fuqarolar axborot madaniyatini yuksaltirish, aksiologik tarbiyani tizimli tashkil etish, madaniy-ma'rifiy muassasalar qamrovini kengaytirish, uni yangi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga moslashtirish kabi ustuvor vazifalar asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda ma'naviy qadriyatlar milliy siyosiy dasturni hayotga tatbiq etish, ko'zlangan maqsadlarga erishish imkoniyatlarini kengaytirayotgani, iqtisodiy yangilanishlar targ'ibotchisi va birdamlik, yakdillik va hamjihatlikni ta'minlashda, shaxs ma'naviy yuksalishiga ijobiy ta'sir etayotganligi, Yangi O'zbekistonning o'ziga xos imijini shakllantirishga o'z ta'sirini o'tkazayotganligi isbotlangan.

mamlakatimizda ma'naviy qadriyatlarni barqarorlik omiliga aylantirishning kishilarning ma'naviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, ezgulikni tarannum etuvchi san'at asarlarini ko'paytirish, islom dinining tarbiyaviy potensialidan unumli foydalanish, madaniyatlararo aloqalarni kuchaytirish, jamoatchilik nazoratini keng joriy etish kabi yo'nalishlari aniqlashtirilgan;

jamiyat a'zolarining ma'naviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirishning vaqtdan unumli foydalanish yo'llari va malakasiga bag'ishlangan ilmiy-uslubiy qo'llanmalar, ko'rsatmalarni ko'paytirish va ommalashtirish, uy kutubxonalari va filmotekalari yaratishni rag'batlantirish, aksiologik tarbiyaga doir ommabop maslahatlar majmuini yaratish, "O'zbekistonda ma'rifiy islohotlarni amalga oshirish strategiyasi"ni ishlab chiqish kabi choralari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlar, sotsiologik so'rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan konseptual g'oyalardan ma'naviy qadriyatlar mazmuni, tarkibi va ijtimoiy funksiyalariga doir nazariy-falsafiy tasavvurlarni, ularning ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatiga doir tadqiqotlarni yangi g'oyalar va xulosalar bilan boyitishda, milliy qadriyatlar sohasida yaxlit konsepsiyani shakllantirishda nazariy manba sifatida, shuningdek, mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan jamoalardagi funksional vazifalar samaradorligini oshirishga qaratilgan konseptual yondashuvni yaratishda, ushbu yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarini faollashtirish, milliy qadriyatlarining mazmun-mohiyatini izchil va tizimli ochib berish va ommalashtirish, to'sqinlik qilayotgan muammoli

masalalarga barham berishga oid islohotlarni amaliyotga tadbqiq etish hamda xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash hamda jahon madaniyati bilan uyg'un holda rivojlantirish, milliy madaniyatni keng targ'ib etish, uning xalqaro madaniy makonda tutgan o'rni va mavqeini yanada mustahkamlash jarayonlarida metodologik asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ma'naviy qadriyatlarning ijtimoiy pozitsiyasini mustahkamlashga yo'naltirilgan ijtimoiy dasturlarni tayyorlashda, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda, hududlarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirishda, korxonalar va tashkilotlarda tashkil etiladigan ma'rifiy anjuman va konferensiyalarda, bu sohadagi davlat siyosatini yanada takomillashtirish, chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, vazirliklar va idoralar, yoshlar bilan ishlash ittifoq va tashkilotlarining yoshlarini vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirishda, "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" konsepsiyasini amalga oshirish orqali ma'naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirishdab shuningdek, "Falsafa", "Dinshunoslik", "Ma'naviyatshunoslik" kabi fanlarning mazmunini boyitishda, talabalar bilan uyushtiriladigan "Besh muhim tashabbus" tadbirlarini tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ma'naviy qadriyatlarning ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini tahlil etish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

jamiyatda ma'naviy qadriyatlar ijtimoiy pozitsiyasining mustahkamlanishi demokratik siyosiy tizimni (inson erkinliklari va haq-huquqlari ustuvorligi, inson kapitalini yuksaltirish) vujudga keltirishda, ma'rifiy jamiyatni (sog'lom axloqiy muhit, ilmiy-innovatsion salohiyat) shakllantirishda, xavfsiz va tinchliksevar davlat (diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, sinflararo va tabaqalararo hamjihatlik) barpo etish kabi tamoyillarni amaliyotga joriy etishdagi prakseologik ahamiyatiga oid nazariy mulohazalardan Qarshi davlat universitetida bajarilgan A-1-173-son "Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga shakllantirish texnologiyasi va metodikasini xos tarbiyasini ishlab chiqish" grant loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2024-yil 20-maydagi 04/1441-son ma'lumotnomasi). Natijada, grant loyihasini ma'naviy qadriyatlar mazmuni tarkibi va ijtimoiy funksiyalariga doir nazariy-falsaviy tasavvurlar bilan, ularning ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatiga doir yangi g'oyalar va xulosalar bilan boyitishgaga xizmat qilgan;

ma'naviy qadriyatlar rivojini intensivlashuvida siyosiy islohotlarning insonparvarlashuvi, huquqiy tizimning gumanistik modernizatsiyasi, o'zbek milliy madaniyati yuksalishi, mamlakatdagi obodonlashtirish, ilmiy izlanishlar xarakterining o'zgarishi, dinga munosabatning ratsionallashtirish, milliy g'oya va mafkuraning targ'ib va tashviq qilinishi omillar zaruratiga doir ilmiy yangilik va xulosalardan O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi faoliyatida, jumladan 2020-2024 yillarga mo'ljallangan Saylovoldi dasturida keltirilgan VI. "Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ustuvor yo'nalishlar" sohasida keltirilgan vazifalar

ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining 2024-yil 14-iyundagi 02/02-34-son ma'lumotnomasi). Natijada, partiya tizimidagi xodimlarning ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi bilim va ko'nikmalarini oshirish, o'quv-uslubiy hamda mafkuraviy targ'ibot ishlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

ma'naviy qadriyatlar nufuzi va ravnaqiga hayot sur'atlari, ijtimoiy tengsizlik mavjudligi, korrupsion holatlarning saqlanib qolayotgani, jamiyat a'zolari ma'naviy ehtiyojlari xarakteri o'zgarayotgani, axborot makonida shov-shuv va feyklarning ko'payayotgani, aksilqadriyatlar targ'iboti faollashayotgani, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati besamarligi, ayolning oiladagi mavqei pastligi kabi illatlarga oid mulohazalar, umumlashmalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyatida, jumladan jumladan, 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining III yo'nalishida belgilangan "G'oya va mafkura masalasi hamda ilm-fan va ma'rifat targ'iboti" 13-bandi "Yangi ma'naviy makonni shakllantirishning dolzarb masalalari, bu borada ma'rifatparvar, ziyolilar, davlat va jamoat faollarini birlashtirish hamda "Yangi O'zbekiston orzusi"ni ro'yobga chiqarish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish"ga qaratilgan targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 1-iyuldagi 287-son ma'lumotnomasi). Natijada, ma'naviy qadriyatlar mazmuni, shakllari va funksiyalari aniqlashga, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ma'naviy qadriyatlarimizning ahamiyati aniqlashga hamda ma'naviy qadriyatlarga putur yetkazayotgan omillarni bartaraf etishga xizmat qilgan;

ma'naviy qadriyatlar nufuzi va ravnaqiga hayot sur'atlari, ijtimoiy tengsizlik mavjudligi, korrupsion holatlarning saqlanib qolayotgani, jamiyat a'zolari ma'naviy ehtiyojlari xarakteri o'zgarayotgani, axborot makonida shov-shuv va feyklarning ko'payayotgani, aksilqadriyatlar targ'iboti faollashayotgani, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati besamarligi, ayolning oiladagi mavqei pastligi kabi illatlarning salbiy ta'siri keltirilgan ilmiy yangilik va xulosalardan Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasi faoliyatida, jumladan 2024-yil 31-may kuni efirga uzatilgan "Oltin voha" va 2024 yil 19-iyun kunlari efirga berilgan "Nuqtai nazar", "Noyob meros" teleradioeshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 19-iyundagi 17-01a/208-son ma'lumotnomasi). Natijada, teleradioixlosmandlarning ma'naviy qadriyatlar mazmuni, shakllari va funksiyalari, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ma'naviy qadriyatlarimizning ahamiyati hamda ma'naviy qadriyatlarga putur yetkazayotgan omillarni bartaraf etishga doir bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) maqola chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, olti paragrafni o‘z ichiga olgan uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 136 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘yekti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprotatsiyasi, e‘lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ma‘naviy qadriyatlar mohiyatining nazariy-falsafiy tahlili”** deb nomlanib, unda “ma‘naviy qadriyatlar” tushunchasining mazmuni, shakllari va funksiyalari, uning ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashdagi ahamiyati ochib berilgan.

Qadriyatlar mavjudlik usullariga ko‘ra moddiy va ma‘naviy qadriyatlarga, subyektlariga ko‘ra umuminsoniy, milliy va shaxsiy qadriyatlarga tasniflanadi. “Moddiy qadriyatlarga tabiat, tabiiy boyliklar, mehnat vositalari, zavod-fabrikalar, moddiy mahsulotlar, shahar, qishloqlar va shu kabilar kiradi”⁶. Ma‘naviy qadriyatlarning mazmunini ta‘riflash va uning shakllarini tavsiflash esa birmuncha mushkulroq. Bu boradagi tasavvurlar hanzga qadar o‘zining turli-tumanligi, ziddiyatlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Dissertantning fikricha, ma‘naviy qadriyatlarning ijtimoiy taraqqiyot asl maqsadlari kontekstida tahlil qilinishi uning mazmuni va shakllariga bir qadar oydinlik kiritadi. Odatda ijtimoiy taraqqiyot deganda kishilik jamiyatining bir sifatiy bosqichdan ikkinchi sifatiy bosqichga o‘ta borishi jarayoni tushuniladi. U mazmunsiz, yo‘nalishsiz kechadigan jarayon emas. Uning asl mo‘ljallari, maqsadlari mavjud. Bu maqsad kishilarning baxtli-saodatli va farovon turmushi bilan bog‘liq. Turli jamiyatlarda ijtimoiy taraqqiyotning tub maqsadlari turlicha talqin qilinishi, ifodalanishi mumkin. Biroq har qanday talqin yuqorida ta‘kidlangan baxtli-saodatli va farovon turmush bilan bog‘liq bo‘laveradi. *Ma‘naviy qadriyat deganda ijtimoiy taraqqiyotning ana shu tub maqsadi – insonning baxtli-saodatli va farovon turmushiga xizmat qiladigan bilim, g‘oya, ijtimoiy norma, mahorat, ko‘nikma, odat, marosim, ideallar, ularni yaratish va saqlash usublari va usullari, kelgusi avlodlarga translyatsiya qilish mexanizmlari tushuniladi.* Ma‘naviy qadriyat mazmunini shunday tushunishgina uning asosiy shakllari, funksiyalari va xususiyatlarini aniqlash, boshqa ma‘naviy fenomenlar va aksilqadriyatlardan ajratib olish imkonini beradi.

⁶ Эркаев А. Маънавиятшунослик. 2-китоб. - Тошкент: “Маънавият”, 2018. - Б.77.

Tadqiqotda ma'naviy qadriyatlarning turli shakllari mavjudligi asoslab berilgan. Masalan, ma'naviy qadriyatlarni uning obyektiga qarab tasniflash⁷, inson dunyoqarashi va e'tiqodi nuqtai nazaridan tasniflash⁸ qayd etilgan. Ma'naviy qadriyat shakllari ma'naviy ishlab chiqarish ko'rinishlariga monand ravishda tasniflangan. Chunki har qanday ma'naviy qadriyat avvalo, ma'naviy ishlab chiqarish mahsulidir. Shu nuqtai nazardan tasniflaganda, ma'naviy qadriyatlar ilmiy, diniy, falsafiy, axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy qadriyatlarni o'z ichiga oladi.

Davr o'tishi bilan turli ijtimoiy jarayonlar, iqtisodiy tendensiyalar, madaniy omillar ta'sirida ma'naviy qadriyatlarning mazmuni to'lishib boradi. G.G.Bogovich va M.L.Dorjiyeva ularning shakllanishi jarayoni quyidagi xususiyatlarga egaligini qayd qiladi:

a) ma'naviy qadriyatlar - bir tomondan, individual mehnat, ikkinchi tomondan, ijtimoiy mehnat mahsulidir;

b) avlodlar almashgani sayin asl ma'naviy qadriyatlarning qadr-qimmati yo'qolmaydi, aksincha bu qadr yuksalib va takomil topib boraveradi;

v) ma'naviy qadriyatlar iste'moli passiv holda sodir bo'ladigan jarayon emas, u inson ma'naviy olamining o'zgarishiga va yuksalishiga poydevor yaratadi;

g) ma'naviy qadriyatlarning yaratilishi va ishlab chiqarilishi ancha uzoq davom etadigan jarayondir, biroq ularning o'zlashtirilishi va tarqatilishi nisbatan tezroq sodir bo'ladi;

d) ma'naviy qadriyatlarning turli shakllari ularni ishlab chiqarish shakllaridan ajralmas xarakterga ega⁹.

Ma'naviy qadriyatlar jamiyat a'zolari hamjihatligini ta'minlovchi manbalardan biridir. Ular kishilarni umumiy maqsadlar atrofida birlashtirishga va shuning bilan har qanday jamiyatning barqaror ravishda hukm surishiga imkon yaratadi. Jamiyatdagi axloqiy muhit sog'lomligini ta'minlashda ham ma'naviy qadriyatlarning o'rni salmoqlidir. Chunki aynan ma'naviy qadriyatlar jamiyat a'zolarini umumijtimoiy axloqiy normalardan voqif qiladi, ularni mazkur normalarga amal qilishga chorlaydi. Ma'naviy qadriyatlar kishilar dunyoqarashini shakllantiruvchi omildir. Jamiyat a'zolarining qarashlari, olamda sodir bo'layotgan voqealar, jarayonlar, hodisalar xususidagi tasavvurlari aynan jamiyatning ma'naviy qadriyatlari asosida qaror topadi. Bu qadriyatlar ajdodlar tomonidan jamlangan bilim va g'oyalar, ijtimoiy tajribalarni avlodlardan avlodlarga translyatsiya qilib boradi. Shu nuqtai nazardan fikrlaganda, ma'naviy qadriyatlar ijtimoiy vorisiylikni ta'minlovchi manba sifatida ham xizmat qiladi. Jamiyat ma'naviy qadriyatlari kishilarni tabiat, jamiyat va inson borlig'ini mufassalroq o'rganishga, uning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashga rag'batlantirib turadi. Ular shaxs badiiy-estetik fazilatlarini, go'zallik, garmoniya haqidagi tasavvurlarini takomil toptiradi.

⁷ Нугаев Р.М. Смена развитых научных теорий: ценностные измерения // Вопросы философии. – Москва, 2000. - №11. – С.27.

⁸ Эркаев А. Маънавиятшунослик. 2-китоб. - Тошкент: "Маънавият", 2018. - Б.77.

⁹ Qarang: Богovich Г.Г. Противоречия формирования духовных ценностей офицера современной российской армии и их разрешение: Дисс. На соиск... канд. филос. наук.- М., 2000. - С. 22-23; Доржиева М.Л. Подход к пониманию сущности духовных ценностей в сфере социального и индивидуального существования личности // Вестник Бурятского государственного университета. Философия, 2009., - №6. – С.101.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, ma'naviy qadriyatlar ijtimoiy barqarorlik omillarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Zotan, *birinchidan*, ijtimoiy barqarorlik demokratik siyosiy tizim orqali ta'minlanadi. Ma'naviy qadriyatlar esa demokratik siyosiy tizimni vujudga keltiruvchi bosh omildir. Ular jamiyat a'zolarining e'tiqodi, fazilatlarini, hayotiy tamoyillariga ta'sir ko'rsatish asnosida odamlarning davlat institutlari, ijtimoiy-siyosiy mexanizmlar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga munosabatini yuzaga keltiradi.

Ikkinchidan, ijtimoiy barqarorlik inson erkinliklari va haq-huquqlari ustuvor jamiyatdagina yuzaga keladi. Ma'naviy qadriyatlar esa mazkur tamoyilning qaror topishiga poydevor yaratadi. Ular adolat, tenglik, inson qadri, mehr-oqibat, bag'rikenglik haqidagi tasavvurlar va orzu-umidlarning qonunlar tarkibidan joy olishiga zamin yaratadi.

Uchinchidan, ijtimoiy barqarorlik sog'lom axloqiy muhit mahsulidir. Ma'naviy qadriyatlar esa axloqiy muhitni shakllantiruvchi omil vazifasini o'taydi.

To'rtinchidan, ijtimoiy barqarorlik jamiyatning estetik kapitaliga tayanadi. Ma'naviy qadriyatlar esa estetik kapitalni yuzaga keltiruvchi manbadir. Ular jamiyatda o'zaro ishonch va hurmat muhitini yaratarkan, estetik kapital rivojiga zamin hozirlaydi. Muhabbat, mehr-muruvvat, rahm-shafqat kabi ma'naviy qadriyatlar jamiyat a'zolarining gumanistik estetik idrokini takomillashtiradi.

Beshinchidan, ijtimoiy barqarorlik jamiyatning ilmiy-innovatsion salohiyatiga tayanadi. Ma'naviy qadriyatlar esa ana shunday salohiyatni yuzaga keltirishga xizmat qiladi. Ular madaniyat, ta'lim va fan rivojiga salmoqli hissa qo'shadi, olimlarni yangi bilim, g'oya va ta'limotlarni yaratishga undaydi, ijodkorlik va innovatsiyalarni rivojlantirishga ilhomlantiradi.

Oltinchidan, ijtimoiy barqarorlik diniy bag'rikenglik muhitini taqozo qiladi. Ma'naviy qadriyatlar esa jamiyatda ana shunday tamoyilning qaror topishiga zamin yaratadi. Asl ma'naviy qadriyatlarni chuqur o'zlashtirgan shaxs boshqa diniy e'tiqodlarga nisbatan bag'rikenglikka moyil bo'ladi, o'zga diniy konfessiya vakillari bilan o'zaro muloqotga kirisha oladi.

Yettinchidan, ijtimoiy barqarorlik millatlararo totuvlik natijasi hisoblanadi. Ma'naviy qadriyatlar esa jamiyatda turli millat va elat vakillari o'rtasidagi hamjihatlikning negizidir. Aynan ma'naviy qadriyatlar turli millat va elat vakillarini umumiy g'oyalar va ijtimoiy manfaatlar atrofida birlashtirishi mumkin. Ma'naviy qadriyatlar, shuningdek, boshqa milliy madaniyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantiradi, turli etnos vakillari o'rtasida o'zaro ishonch va hamkorlikni rivojlantiradi va shu tariqa ko'pmillatli jamiyatning ijtimoiy barqarorligini kafolatlaydi.

Sakkizinchidan, ijtimoiy barqarorlik sinflararo va tabaqalararo hamjihatlikni o'zida mujassam qiladi. Ma'naviy qadriyatlar esa ular o'rtasidagi yakdillikni ta'minlovchi omildir. Rahm-shafqat, bag'rikenglik va boshqalarga hurmat kabi ma'naviy qadriyatlar sinflararo va tabaqalararo ishonch muhitini shakllantiradi. Ma'naviy qadriyatlar turli sinf va tabaqa vakillarini umumiy ideallar va maqsadlar atrofida birlashtirishi, ularni umumijtimoiy axloqiy norma va tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatishga undashi mumkin. Halollik, adolat, vijdonlilik kabi ma'naviy

qadriyatlar jamiyat a'zolarining adolat haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

*To'qqizinchi*dan, ijtimoiy barqarorlik zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan kishilar bisyor jamiyatdagina hukm suradi. Ma'naviy qadriyatlar esa ana shunday dunyoqarashga ega jamiyat a'zolarini ko'paytirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy shart-sharoitlar, shaxslararo munosabatlar faol o'zgarayotgan bugungi pallada ma'naviy qadriyatlar insonga hayot mazmuni va maqsadlarini yo'qotib qo'yimaslik imkonini beradi, uni ezgulik va insonparvarlikka undab turadi, yangi va yangi bilim va g'oyalarni o'zlashtirishga tayyorlaydi.

*O'ninchi*dan, ijtimoiy barqarorlik insonparvar va vatanparvar kishilardan tarkib topgan jamiyat atributidir. Ma'naviy qadriyatlar esa ana shunday fuqarolarni voyaga yetkazish vositasidir. Ular shaxsning insonparvarlik va vatanparvarlik bilan yo'g'rilgan ma'naviy olamini qaror toptiradi. Bunday ma'naviy olamga xos bo'lgan gumanistik e'tiqod uning butun hayotiy faoliyatini boshqalar baxt-saodati va farovonligi sari yo'naltiradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ma'naviy qadriyatlar shakllanishi intensifikatsiyasi”** deb nomlanib, unda ma'naviy qadriyatlar mazmunidagi asosiy o'zgarishlar, ularga putur yetkazayotgan jarayonlar va illatlar ochib berilgan.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy sohalarida ro'y bergan yangilanishlar ma'naviy qadriyatlar mazmuni va tarkibini tubdan o'zgartirdi. Yangi ijtimoiy vaziyat, keng ko'lamli islohotlar, bir tomondan, asrlar davomida qaror topgan ma'naviy qadriyatlarni mazmunan boyitdi, takomillashtirdi. Ikkinchi tomondan, ijtimoiy jarayonlar ta'sirida ma'naviy qadriyatlar tarkibi tubdan o'zgardi. Uchinchi tomondan, ma'naviy qadriyatlar iyerarxiyasida yangilanishlar sodir bo'ldi, ularning ayrimlari ko'proq, boshqalari esa nisbatan kamroq qadrlanadigan bo'ldi.

Dissertatsiyada ma'naviy qadriyatlar mazmunini o'zgartirgan omillar tahlil etilib, *birinchi omil* siyosiy islohotlar bilan bog'liq ekanligi qayd etilgan. Bu islohotlar mamlakatda yangi siyosiy makonni vujudga keltirdi. Unda faoliyat ko'rsatish uchun yangi siyosiy bilimlar, norma va tamoyillarga tayanish zarur bo'ladi. Ushbu zaruriyat O'zbekistonda kommunistik mafkura nuqtai nazaridan shakllantirilgan siyosiy bilimlarni qadrsizlantirdi, ularning o'rnini demokratik jamiyat siyosiy borlig'iga oid siyosiy bilimlar egallashiga olib keldi.

Ikkinchi omil esa, huquqiy tizim modernizatsiyasi bilan bog'liq bo'ldi. Mamlakatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi ko'plab huquqiy normalar qayta ko'rib chiqildi, huquqiy institutlar faoliyati unumini oshirish choralari ko'rildi. Endilikda davlat va uning manfaatlarini ulug'lovchi qadriyatlar emas, inson hamda jamiyat huquq va erkinliklarini e'tirof etuvchi qadriyatlar ustuvor ahamiyat kasb qila boshladi.

Albatta, *uchinchi omil* o'zbek milliy madaniyatining yuksalishi bilan bog'liq bo'ldi. Mazkur choralar pirovardida esa eskicha axloq normalari o'rnini milliy axloqiy qadriyatlar egallashiga zamin yaratdi.

To'rtinchi omil sifatida mamlakatdagi obodonlashtirish ishlarini qayd etish lozim. Keng ko'lamli obodonlashtirish ishlari jamiyat a'zolarining estetik

qadriyatlarini tubdan o'zgartirdi, estetik didini takomil toptirdi, kishilarning uy-joy go'zalligi, mehnat go'zalligi haqidagi tasavvurlarini kengaytirdi.

Ma'naviy qadriyatlar mazmunini boyitgan *beshinchi omil* ilmiy izlanishlar xarakteri o'zgarishi bilan bog'liq bo'ldi. Keyingi yillarda O'zbekistonda ilmiy izlanishlarni jamiyat oldida turgan dolzarb muammolarni hal qilishga yo'naltirish choralari ko'rildi. Ushbu o'zgarishlar tabiat, jamiyat va inson borlig'iga doir tasavvurlar, bilimlar, g'oyalar doirasini kengaytirish imkonini yaratdi. Bu yangi tasavvur va bilimlar milliy ma'naviy qadriyatlar olamini yanada boyitdi.

Ma'naviy qadriyatlar mazmunini boyitgan *oltinchi omil* dinga munosabatning o'zgarishi bilan bog'liq bo'ldi. O'zbekistonda mustaqillik yillarida dinga munosabat batamom o'zgardi. Dinga munosabatning o'zgarishi esa yaqin o'tmishda unut bo'lgan diniy qadriyatlar tiklanishiga olib keldi.

Ma'naviy qadriyatlar mazmunini boyitgan *yettinchi omil* millatlararo totuvlikning ta'minlanishi bilan bog'liq bo'ldi. O'zbekiston hududida tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida turli millat va elat vakillari hamjihatlikda umrguzaronlik qilganlar. Bu turli-tumanlik millatlararo totuvlikning qaror topishi uchun real shart-sharoit yaratgan. Jamiyatda millatlararo totuvlikning yanada mustahkamlanishi turli millat va elat vakillarini yagona maqsadlar atrofida birlashtirdi, ular o'rtasidagi ijtimoiy-madaniy aloqalarni intensivlashtirdi, o'zaro ishonchni kuchaytirdi. Buning natijasida jamiyatda umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar ustuvor bo'lgan ijtimoiy-madaniy va ma'naviy-ruhiy muhit yuzaga keldi.

Ma'naviy qadriyatlar mazmunini boyitgan *sakkizinchi omil* milliy istiqlol g'oyasining targ'ib qilinishi bilan bog'liq bo'ldi. O'zbekistonda milliy istiqlol g'oyasining shakllantirilishi, uni targ'ib va tashviq qilish mexanizmlarining vujudga keltirilishi kommunistik mafkuraviy qadriyatlar o'rmini milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan mafkuraviy qadriyatlar egallashiga zamin yaratdi.

Bugungi kunda takomil topgan mazkur ma'naviy qadriyatlar siyosiy tizimni insonparvarlik tamoyillariga bo'ysundirayotgan ma'naviy mo'ljal vazifasini o'tamoqda. Ular iqtisodiy subyektlar ijtimoiy mas'uliyatini yuksaltirayotgan asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ma'naviy qadriyatlar ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlayotgan va ijtimoiy tengsizlikni yumshatayotgan manba bo'lib qolmoqda. Ular jamiyat ma'naviy hayoti xarakterini belgilayotgan va ma'naviy-ruhiy muhitni sog'lomlashtirayotgan qudrat sifatida saqlanmoqda. Ma'naviy qadriyatlar O'zbekistonning jahondagi nufuzini va o'ziga xos imijini shakllantirishga imkon yaratmoqda. Ular yangi jamiyatni bunyod qilish uchun ma'naviy asos vazifasini o'tamoqda.

Dissertant fikricha, ijtimoiy taraqqiyot davom etarkan, ma'naviy qadriyatlar mazmunini o'zgartiradigan, gohida esa ularning jamiyatdagi nufuzi va qimmatiga putur yetkazadigan yangi va yangi omillar paydo bo'laveradi. O'zbekistonda ham qator jarayonlar sodir bo'lmoqdaki, ular ma'naviy qadriyatlar olamida o'z izini qoldirmoqda. Jumladan, ma'naviy qadriyatlarga putur yetkazayotgan asosiy jarayon *hayot sur'atlarining tobora jadallashib borayotgani* bilan bog'liq. Intensiv hayot ta'sirida xotirjamligidan judo bo'lib borayotgan inson hayot mazmuni va maqsadi, insonparvarlik, adolatparvarlik, mehr-muruvvat, insof-diyonat,

hamjihalik, birdamlik kabi azaliy ma'naviy qadriyatlar haqida fikr yuritishga, ularning mazmuni bilan farzandlarini tanishtirishga, boshqalarni ushbu qadriyatlar sari chorlashga, ularni qaror toptirish yo'lida faoliyat ko'rsatishga ulgurmayapti.

Jamiyatda *ijtimoiy tengsizlikning mavjudligi* ham ma'naviy qadriyatlar qimmatiga o'z ta'sirini ko'rsatyapti. Unga guvoh bo'lgan kishilar adolat, muruvvat, insonparvarlik, hamjihalik, erkinlik, bunyodkorlik kabi ma'naviy qadriyatlarning biror bir ijtimoiy qadr-qimmati borligiga ishonmay qo'ymoqdalar.

Jamiyatda *korruptsiya holatlarning saqlanib qolayotgani* ma'naviy qadriyatlarni obro'sizlantirmoqda. Noqonuniy, harom-harish yo'llar bilan boylik orttirish imkoni mavjudligi, shunday yo'l bilan boyigan odamlar borligining o'zi kishilarning halollik, poklik, haqiqatparvarlik, adolat kabi qadriyatlarga bo'lgan ishonchiga putur yetkazmoqda.

Jamiyat a'zolari *ma'naviy ehtiyojlari xarakterining o'zgarayotgani* ham ma'naviy qadriyatlar ijtimoiy pozitsiyasi hamda rivojiga putur yetkazmoqda. Bugungi kunda globalashuv tendensiyasi sharofati bilan mamlakatga ayrim g'arbona adabiyot va san'at asarlari, tendensiyalari kirib kelishining avj olishi jamiyat a'zolari ma'naviy ehtiyojlari xarakterini salbiy tomonga o'zgartirmoqda. G'arb adabiyot va san'atining ayrim namunalari asrlar davomida ulug'lab kelingan ma'naviy qadriyatlarni emas, inson ma'naviy kamolotiga xizmat qilmaydigan aksilqadriyatlarni ommalashtirmoqda¹⁰, nosog'lom ma'naviy ehtiyojlarni yuzaga keltirmoqda.

Axborot makonida *shov-shuv va feyklarning ko'payayotgani* jiddiy oqibatlarga olib kelayotir. Xususan, kishilar ijtimoiy ahamiyati katta bo'lmagan, lekin shov-shuvga sabab bo'ladigan voqealarni kuzatishga, yolg'on va asoslanmagan xabarlarga oson ishonishga moyil bo'lib bormoqdalar. Aksilqadriyatlar targ'iboti faollashib borayotgani esa qadriyatlar iyerarxiyasi to'g'risidagi noto'g'ri tasavvurlarni shakllantirarkan, jamiyat a'zolari moddiy va ma'naviy ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatni buzmoqda.

Ayni damda *madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati besamar* kechmoqdaki, bu ma'naviy qadriyatlarning jadal rivojiga to'sqinlik qilmoqda. Masalan, mamlakatdagi ayrim madaniy markazlar hatto o'z binosiga ega emas, ularda moddiy-texnikaviy yetishmovchilik ana shunday salmoqli kontingentga ma'naviy qadriyatlar mazmunini singdirish imkoniyatlarini cheklab qo'ymoqda¹¹.

Ayolning oiladagi mavqei pastligicha qolayotgani bilan ma'naviy qadriyatlar rivoji o'rtasida ham muayyan aloqadorlik mavjud. Ayolning ijtimoiy mavqei oshgani bilan aksariyat hollarda uning oiladagi mavqei pastligicha turibdi. Mavqei past ayol farzandlarga ajdodlar tomonidan asrlar davomida e'zozlab kelingan ma'naviy qadriyatlar mazmunini farzandlariga singdira olmayotir.

